
DO'STLIK MFY BOLAJONLARI UCHUN MUNOSIB SOVG'A

Toshloq tumanida aholi turmush faravonligini oshirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu borada joylarda keng qamrovli bunyodkorlik ishlari yuritilib, ko'plab bino va inshootlar aholi uchun foydalanishga topshirilmoqda. Tumandagi ko'p qavatli uylarda istiqomat qiluvchi fuqarolarga hamda ularning farzandlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida zamonaviy bolalar o'yingohlari qurib bitkazilmoqda.

Ko'p kvartirali uylarga tutash hududlarini obodonlashtirish, yosh avlodni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, salomatligini mustahkamlash, ularni jismonan chiniqtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5152-sonli qaroriga asosan, 2022 yil dasturiga ko'ra, Toshloq tumani Do'stlik MFY, Do'stlik ko'chasidagi 7-sonli ko'p kvartirali uyning tutash hududida zamonaviy bolalar o'yingohi Ko'p xonadonli uylarni joriy va mukammal ta'mirlash, issiqlik ta'minoti ob'yektlarini qurish bo'yicha injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida barpo etildi.

2022-09-20 15:07:50